OSTEOPOROZ KASALLIGI VA UNI DAVOLASHDA VITAMIN D AHAMIYATI

CH.Q. SALAYDINOVA
t.f.d(DSc)
D.Q. XOLMURODOVA
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand Òzbekiston
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand Òzbekiston

Annotatsiya: Osteoporozning kelib chiqish sabablari va belgilarini tahlil qilish. Osteoporoz kasalligini davolash usullari, turlari hamda osteoporoz kasalligining asoratlarini òrganish. Osteoporozning oldini olish. Tashxislash. Osteoporoz (osteon--suyak, porosis-- teshik) ma'nosini anglatadi. Osteoporozning uch xil turi farq qilinadi: birinchi turiga qarilik osteoporozi kalsiy yetishmagan vaqtda kelib chiqadi. Asosan 70 yoshdan oshgandan sòng kuzatiladi. Ikkinchi turi ikkilamchi osteoporoz hisoblanib boshqa biror kasallikning suyak tizimiga salbiy ta'siri yoki dori darmonlarni me'yoridan ortiq iste'mol qilishi tufayli kelib chiqadi. Uchinchi turiga idioataptik yoshlar osteoporozi ham deb ataladi. Yoshlarda uchrashi kòproq kuzatiladi. Kasallikning bu turining sabablari hali tòliq òrganilmagan. Osteoporoz kasalligini tòliq davolab bòlmaydi. Uning uchun qilingan chora-tadbirlar faqat bemorning umumiy ahvolini yaxshilaydi. Osteoporoz kasalligi ayollarda gormon buzilishi tufayli kòproq uchraydi.

Kalit sòzlar: osteoporoz, gipokalsiemiya, vitamin D3, kompyuter tomografiya, endoprotez.

Osteoporoz bu suyak tuzilishining òzgarishi bilan boǵliq kasallik hisoblanib, bunda suyak massasining kamayishi mòrtlikning oshishi kuzatiladi. Shifokorlar osteoporoz rivojlanishining 3 ta bosqichini farqlashadi, shunga asoslanib kasallik og‘irlik darajasi ham belgilanadi.

Birinchi daraja. Shifokorlar tomonidan suyaklar zichligining pasayganligi, suyaklar soyasining kamayishi aniqlanadi. Odatda osteoporozning birinchi darajasi profilaktik tekshiruvlar natijasida aniqlanadi, chunki u belgilarsiz kechadi

O‘rta daraja. Bu davrga kelib suyaklarning sezilarli darajada zichligi kamayishi, umurtqa suyakalarida deformatsiyalar aniqlanadi. Bu darajaning o‘ziga xosligi – inson suyaklar, bo‘g‘imlar, mushaklarida og‘riqlar sezadi.

Yaqqol osteoporoz. Rentgenologik tekshiruvda suyaklarning yaqqol xiralashgani ko‘rinadi. Bu davrga kelib osteoporozni qo‘shimcha tekshiruvlarsiz bemalol aniqlab olsa bo‘ladi. Osteoporoz kòpincha bilak, umurtqa poǧonasi, son suyagida kelib chiqadi. JSST ma'lumotlariga kòra, osteoporoz yurak va qon tomir patologiyalari, onkologik jarayonlar va diabetdan keyingi òrinda turuvchi yuqumli bòlmagan kasallik. Osteoporoz gipokalsiemiya ya'ni qonda kalsiy miqdorining kam bòlishi oqibatida kelib chiqadi. Uning alomatlari: bosh oǧriǧi va bosh aylanishi kuzatiladi. Osteoporozning asosiy sababi suyak tòqimasining involyutsion (yoshga boǧliqligi) bosqichi bòlib, uning omillari: tana vaznining pasayishi, gormonlarning buzilishi, notòǧri ovqatlanish, ba'zi dori-darmonlarni kòp miqdorda iste'mol qilish. Osteoporoz rivojlanishining yagona belgilari ba'zida umurtqa poǧonasining oǧriǧi (kòkrak va bel) katta va kichik suyaklarning sinishining ortishi, tos suyaklarida oǧriq paydo bòladi. Osteoporoz bilan kasallangan insonlarda sochlarning oqarishi, yurak urish soni ko‘payishi ham kam hollarda uchraydi. Hamda kuraklar sohasidagi oǧriqlar, umurtqa poǧonasi qiyshayishi, katta-kichik suyaklar sinishining ortishi kabi belgilar kuzatiladi. Osteoporozga tashxis qòyishda suyaklar va umurtqa poǧonasi rentgen qilinadi. Densitometriya-- suyaklar mustahkamligi ultratovush, rentgen va kompyuter tomografiyasi yordamida aniqlanadi. Bunda bemorning apparat yordamida rentgen nurlari ishtirokida suya tarkibidagi minerallar miqdorini aniqlanadi. Osteoporozning asoratlarida suyaklarning sinib qolishi, ayniqsa, son suyak boshchasining sinishi kuzatiladi. Ya'ni chanoq-son osteoporozi deyilib, ushbu holatda bemor yura olmaydi, yotib qoladi. Kamharakatlik kasallikni battar rivojlantiradi va yosh òtgach, nogironlikka ham olib kelishi mumkin.

Osteoporozni davolashda suyaklarda moddalar almashinuvini me'yorga keltirishni ta'minlash, suyaklar sinishining oldini olish oǧriqlarni kamaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Dori preparatlari tarkibida vitamin D3 ($C_{27}H_{44}O$) va (Ca) bor bòlib, unda alyuminiy (Al), temir (Fe), magniy (Mg), kobalt (Co) kabi elementlar ham uchraydi. Vitamin D òzida gormonlik xususiyatlarini namoyon qiladi. Vitamin D steroid modda, u xolesterindan hosil bòlgan. Vitamin D ichaklardan kalsiyning qonga sòrilishi uchun kerak. Vitamin D quyosh nurlari ta'sirida terida sintezlanadi. Aktiv gormon hisoblangan vitamin D ichaklardan qonga sòrilayotgan kalsiy (Ca) miqdorini oshiradi va buyraklardan kalsiyning chiqib ketishini kamaytiradi. Shuning uchun gipokalsiemiya ya'ni organizmda kalsiy (Ca) yetishmaganda vitamin D buyuriladi. Bemorni davolash bosqichlarida unga maxsus dieta va massaj

buyuriladi. Osteoporozni dori-darmonlar vositasida davolashda barcha dorilar suyak sintezini kuchaytiruvchi, minerallar miqdorini oshiruvchi preparatlari buyuriladi. Masalan, kadevit qon va suyak tòqimasi tarkibidagi vitamin va minerallarni normallashtirishga yordam beradi. Uning tarkibida askorbin kislotasi 75mg, metionin 50mg, riboflavin 2.5mg tiamin gidroxloridi 2.5mg va boshqa shu kabi moddalar bòladi. Osteoporozning lazerli terapiyasi kuchli oǵriqlar va harakatdagi qiyinchiliklar uchun qòllaniladi. Jarrohlik usulida davolashda suyak sinishi yuz berganda qòllaniladi. Osteoporozning asoratlari hozirgi kunda jarrohlik usulida davolanadi. Masalan katta yoshdagi bemorlarning chanoq-son bòǵimi osteoporozining erta va òrta bosqichlarida endoprotez (sun'iy bòǵim) qòyiladi. Endoprotez bu ma'lum bir organ funksiyasini almashtiradigan sun'iy qurilma. Metall endoprotezlar turli xil zanglamaydigan pòlatdan yasalgan qotishmalardan tayyorlanadi. Ular akril qanoti va kobalt(Co), xrom (Cr) qotishmalari bòlgan maxsus tsement yordamida suyakka mahkamlanadi. Endoprotezning silliq yuzasini ishlab chiqarrish uchun oǵir polietilen va alyumin (Al) keramika ishlatiladi. Endoprostetik jarrohlik turli xil kasalliklarda v bòǵim apparati shikastlanishlarida qòllaniladi. Osteporozni xaq tabobati bian davolashda mòmiyodan foydalanilsa bòladi. Bunda u kuniga 2 mahal mòmiyo sharchalari 50-70 ml suvga eritib 20 kun davomida iste'mol qilinadi. Osteoporozni dieta (parhez) yordamida davolashda va oldini olish uchun tòǧri ovqatlanishga e'tibor berish muhim. Osteoporozning oldini olishda baliq, tuxum, sut va sut mahsulotlari, dukkakli òsimliklarni, kòkatlarni kòproq iste'mol qilinadi. Kòproq piyoda yurish, tennis bilan shuǧullanish osteoporozning oldini oladi. Hamda keksa yoshdagi odamlarda yiqilishning oldini olish lozim. Yosh odamlar esa muntazam sport bilan shuǧullanish tavsiya etiladi. Chunki, sport bilan muntazam shuǧullanish qon aylanishni normallashtiradi, suyak va bòǧimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Osteoporoz bilan hozirgi kunda Yevropa, AQSH, Yaponiyada 75 millionga yaqin odam ushbu kasallikdan aziyat chekmoqda. Yangi osteoporotik yoriqlarning yillik chastotasi taxminan 9 millionni tashkil etadi. Ulardan 1.6 millioni femur(son) suyagining bòyni yoriqlaridir. Osteoporotik yoriqlar kasallik va òlimga sezilarli ta'sir qiladi. Shunday qilib, son suyagining sinishi natijasida òrtacha umr kòrish 12-15 foizga kamaydi. Osteoporoz kasalligi hozirgi kunda tizimli keng tarqalgan kasallik bòlib butun jahon miqyosida uning kelib chiqish sabablari va tòliq davolash turlarini òrganish uchun kòplab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hozirda kòplab mamlakatlarda osteoporoz kasalligi, ayniqsa, chanoq-son bòǧimi osteoporozini endoprotezlar yordamida davolash ishlari yòlga qòyilmoqda. Osteoporoz kasalligini erta aniqlash uning

asoratlari yuzaga kelmasligiga hamda bemorning ahvolini ancha yengillashishiga sabab bòladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. www.avitsenna.uz
2. www. lvrach.uz
3. smclinic.uz
4. Òzbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2000-2005)